

TA'LIM TIZIMIDA BOSHLANG'ICH SINF
O'QUVCHILARINING AXLOQIY TARBIYASIDA MILLIY
QADRIYATLARNING AHAMIYATI

Go‘zalxon O‘sarova Rasuljon qizi
Mo‘minova Shoxistaxon G‘ulomjon qizi

University of Business and Science

*Maktabgacha-Boshlang‘ich ta’lim va
Jismoniy tarbiya kafedrasi o‘qituvchilari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi globallashuv jarayonida eng ko‘p tortishuvlarga sabab bo‘lgan ahloqiy tarbiyani shakllantirish va rivojlanterish bo‘yicha o‘rgangan olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilingan. Tadqiqotning umumiy metodologiyasi doirasida boshlang‘ich ta’lim tizimida maktab yoshidagi bolalarda axloqiy tarbiyani shakllantirishning bayoni keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Axloq, rivojlanish, intelekt, qadriyat, milliy qadriyat, psixologik yondashuv, intellektual rivojlanish.

Аннотация: В данной статье анализируются научные работы учёных, изучавших становление и развитие нравственного воспитания, вызвавшего наибольшее количество споров в условиях современного глобализационного процесса. В рамках общей методологии исследования дана характеристика формирования нравственного воспитания детей школьного возраста в системе начального образования.

Ключевые слова: Этика, развитие, интеллект, ценность, национальная ценность, психологический подход, интеллектуальное развитие.

Abstract: This article analyzes the scientific works of scientists who have studied the formation and development of moral education, which has caused the most controversy in the current globalization process. As part of the general methodology of the research, a description of the formation of moral education in school-age children in the primary education system is given.

Key words: Ethics, development, intellect, value, national value, psychological approach, intellectual development.

Kirish

Hozirgi globallashuv jarayonida, psixologik yondashuvlarga ko‘ra bolalarning kelajak hayotidagi baxt yoki baxtsizlik sabablari har taraflama shu davrning rivojlanish va

tarbiyaviy xususiyatlari bilan bog‘liqligi ta’kidlanadi. Inson qanday tug‘ilishidan qati nazar o‘zi voyaga yetgan jamiyatning milliyligi, an’analari, axloqi, qadriyatlari va dinini o‘zlashtirib, shu xususiyatlar asosida tarbiyalanadi. Dastlabki ta’lim muammosining asosiy muhokama yo‘nalishlaridan biri - yaxshi inson va u orqali yaxshi jamiyatni tarbiyalashdir. Ta’limning bu o‘lchovida odob-axloq tarbiyaning predmetiga aylanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy tarbiyasini shakllantirish masalalarini o‘rganish bo‘yicha aniq vazifalarini belgilab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Binobarin, mazkur vazifalar ko‘lамини quyidagicha idrok etishimiz mumkin:

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirish asoslarini aniqlaash bo‘yicha tadqiqot mavzusiga oid pedagogik manbalar ilmiy tadqiqot va nazariy amaliy yondoshuvlar tahlil qilindi. “Tarbiya” o‘quv fanining o‘qitish asoslari tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi

Hozirgi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intelektual rivojlanishida axloqiy tarbiyaning o‘rnı beqiyosdir. Tarbiyaning naqadar dolzarbligini esa Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi so‘zlaridan anglab olishimiz mumkin: “Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha murakkab vazifalar turibdi”. Bu vazifalarini qanchalik dolzarbli va qay tartibda amalga oshirishimiz haqida ushbu maqolada keng yoritilgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ahloqiy fazilatlarni shakllantirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimlarining tajribalarini ham o‘rganish taqozo etiladi. Bu masala bevosita umuminsoniy qadriyatlar va demokratik jamiyat ustuvorligi sharoitida muhimdir.(2)

Kunimizda ko‘plab o‘zgarishlar jamiyatdagi deyarli barcha shaxsning maqsadlari, umidlari va qadriyatlarini o‘zgartirdi. Ammo, bu o‘zgarishlar maktab yoshidagi bolalarning axloqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi Shu sababdan, ushbu tadqiqot maktab yoshidagi bolalarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish va rivojlanishni o‘rganadi.

Axloqiy tarbiya, insonlar odatda "nima qilishlari kerak-u nima qilmasliklari kerak?", "quyidagi vaziyatda nima to‘g‘ri-yu nima noto‘g‘ri?", "nima yaxshi-yu nima yomon?" kabi ko‘plab savollarga javob beradi. Shu nuqtai nazardan, tarbiyani odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish uchun o‘rnatilgan qonun-qoidalar deb ta’riflashimiz mumkin. Insonlarning qonun-qoidalarga,adolat va jamoaviy harakatlarga hurmati tarbiyaning ijtimoiy jihatini ifodalaydi. Har bir insonni noyob shaxs bo‘lganligi uchun qadrlash axloqiy tarbiyaning o‘ziga xos o‘lchovini ifodalaydi

Maktab ta’lim tizimida, maktab yoshidagi bolalarning rivojlanishi barcha sohalarda jadal faollik sodir bo‘ladigan, intelektual, jismoniy, hissiy, axloqiy va diniy rivojlanish asoslari ko‘p jihatdan rivojlanadigan yosh oralig‘ini qamrab oladigan muhim davrdir.

Maktab yoshidagi bolalarda axloqiy tarbiyaning rivojlanishida quyidagi omillar asos bo‘lib hizmat qiladi.

1. Maktab yoshidagi bolalarning o‘zi xarakteristikasi bilan bog‘liq tarbiya
2. Maktab yoshidagi bolalarning oilasi bilan bog‘liq tarbiya
3. Maktab yoshidagi bolalarning jamiyat bilan bog‘liq tarbiyasi
4. Maktab yoshidagi bolalarning hayvonlarga munosabati bilan bog‘liq tarbiya
5. Maktab yoshidagi bolalarning jismoniy muhit bilan bog‘liq tarbiyasi
6. Yaratuvchi bilan bog‘liq tarbiya

Maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalashda ayniqsa, axloqiy qadriyatlarning o‘rni beqyosdir.

Tarbiyaviy ishlarning rejali va aniq maqsadli bo‘lishi hamda hamjihatlik bilan amalga oshirilishi axloqiy tarbiyaning muvaffaqiyatini ta’minlaydi.(3)

Axloqiy tarbiyaning xulq-atvor va hissiy o‘lchovlar mavjuddir. Bolalar bu hayotta yashar ekan avvalo boshqalarning haq-huquqlarini hurmat qilishni bilishlari, yolg‘on gapirishning naqadar yomon ekanligi haqidagi axloqiy qoidalardan xabardor bo‘lishlari kerak. Keyin esa bolalar ushbu ma’lumotlar asosida belgilangan axloq qoidalariiga muvofiq harakat qilishlari lozim. Keyingi bosqichda namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlar esa bolalarda baxtlilik hissi yoki aybdorlik hissiyotini yaratadi; Yomon xatti-harakatlarni sodir etgan bolalarda aybdorlik, pushaymonlik kabi hissiyotlar paydo bo‘ladi; Yaxshi va to‘g‘ri harakatlar orqali hotirjamlikka erishish mumkin.

Darhaqiqat, axloqiy tarbiya bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turli xil yondashuvlarni ifodalovchi uchta alohida axloqiy tarbiya mezoni mavjud:

- Tashqi nazorat - bu me’yoriy majburiyatlarni bajarish, shaxsning o‘zi himoya qiladigan normaga rioya qilmasdan talablarning yashashi.
- Adolatga nisbatan sezgirlik - bu ijtimoiy tizimda insonlarning tartib-qoidaga nisbatan sezgirliklarini mukofotlar va jazolar orqali yoki almashish qoidalari haqida adolatning xabardorligi va sezgirligi orqali tushunish mumkin.
- O‘z ehtiyojlari va manfaatlaridan voz kechish qobiliyati - bu o‘zaro javobgarlik asosida o‘z manfaatlaridan boshqalarning manfaatlari uchun voz kechish.

Maktab yoshidagi bolalarning intelektual rivojlanishida axloq bilan bog‘liq barcha ruhiy va ijtimoiy jarayonlarni qamrab oladigan tarbiya inson hayotida o‘zini nima qilish kerak-u nima qilmaslik kerakligida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan axloqiy tarbiyaning asosiy negizi sifatida qilinishi kerak bo‘lgan ishlar yaxshilikni, bajarilmasligi kerak bo‘lgan narsalar esa yomonlikni anglatishini keltirib chiqarish mumkin. Biroq, axloqiy tarbiya tashqi tazyiqlardan yoki mukofot kutish natijasida kelib chiqadi. Umuminsoniy tarbiya odob-axloqni bolalar yoshligidan boshlab o‘ziga singdirish, odamlarda vijdon tinchligini uyg‘otish kabi tashqi ta’sirlardan boshlanadigan axloqiy rivojlanish hisoblanadi. Darhaqiqat, bu qadriyatlар insonga doimiy ravishda foyda

keltirmasligi mumkin, lekin ideal axloqiy xulq-atvor tarbiyaning zaruriy sharti hisoblanadi.

Axloqiy tarbiya haqida tushuntirgandan keyin, qadriyat tushunchasiga to'xtalib o'tish zarur. Qadriyatlar e'tiqod va xulq-atvor uslubi bo'lishdan tashqari, maqbul va qabul qilinishi mumkin bo'lman narsalar haqida ko'rsatma berish funktsiyasiga ega.

Qadriyatlarni yaratish ularga sodiqlik axloqiy tarbiyada insonga xos xususiyat hisoblanib, insonning boshqa tirik jonzodlardan ajralib turadigan jihatni hisoblanadi. Odamlar o'rganish ko'nikma hosil qilish, baholash va harakat qilish kabi oddiy va murakkab insoniy faoliyatlarni bajaradi. Insonlargagina xos bunday faoliyatlar insoniy maqsadlarga muvofiq shaxslar tomonidan amalga oshirish orqali insoniy qadriyatlarni yaratadi. Bu nuqtai nazardan, qadriyat odamlarni himoya qiladi va qadriyatlarni tarbiyalash orqali birinchi navbatda inson nima ekanligini ko'rsatadi.

Qadriyatlarning xususiyatlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin: Qadriyat - bu e'tiqoddir. Qadriyatlar shaxsning maqsadlari va bu maqsadlarga erishishda insonlar uchun samarali bo'lgan xatti-harakatlar shakllari bilan bog'liq. Qadriyatlar muayyan harakatlar va vaziyatlardan har qachon ustun turmog'i lozim.

Maktab yoshidagi bolalarda tarbiyaning asosi bolgan axloqiy qadriyatlarni tarbiyalash - bu uyda, ishda, maktabda va biz bilmagan odamlar bilan bo'lган barcha munosabatlarimizda amal qiladigan jarayon hisoblanadi. Qadriyatlar - bu xulq-atvor, insonlar va hodisalarni tanlash yoki o'zgartirishni boshqaradigan standartlar sifatida ishlaydi. Qadriyatlar ahamiyatiga ko'ra tartiblanadi. Madaniyatlar va insonlarni ular ko'rsatadigan axloqiy qadriyatlar ustuvorliklari tizimi bilan tavsiflash mumkin. Qadriyatlar doimo o'zgarishga ochiq. Vaqt o'tishi bilan paydo bo'ladigan yangi ehtiyojlarni qondirish uchun qiymat ustuvorliklarida turli-tuman o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Falsafiy asosda muhokama qilinadigan eng asosiy muammolardan uchtasi baholash bilan bog'liq. "Axloqiy, estetik va gnoseologik" baholash bilan bog'liq muammolar "yaxshi-yomon, go'zal-xunuk va to'g'ri-noto'g'ri nima?" kabi diniy qadriyatlar, iqtisodiy qadriyatlar, ilmiy qadriyatlar, ijtimoiy qadriyatlar, estetik qadriyatlar, huquqiy qadriyatlar kabi tasniflar ham qilingan. Mavzumizga taalluqli boshlang'ich sinflarda axloqiy tarbiya haqida gapiradigan bo'lsak: Shaxsning "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" deb hisoblangan xatti-harakatlarini "yaxshi" yoki "yomon" deb baholash tarbiyaning axloqiy qadriyatlarni keltirib chiqaradi. Tarbiyaning axloqiy qadriyatlarni yaxshi va yomon deb tavsiflangan xatti-harakatlar bilan bog'liq qadriyatlar sifatida aniqlashimiz mumkin. "Yolg'onchilik qanday?" degan savolga "yomon" deb javob berilsa, bu axloqiy bahodir. Bu baholar o'zaro munosabatlarni belgilovchi me'yorlar hisoblanadi. Tarbiyada axloqiy qadriyat mulohazalari umuminsoniyning subektivda ekanligini ko'rsatadi va bilvosita odamlar va jamiyat uchun foyda elementiga aylanadi. Bunga ishonish orqali erishiladi, chunki axloqiy qadriyatlarning e'tiqod o'lchovi bilim va

axloqiy qadriyatlarni o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali, murakkab tabiatga ega. "Yaxshi inson kim va ular qanday bo‘ladi?", "Insonning tabiat, og‘riq va kasalliklar bilan munosabati qanday bo‘ladi?", "Insonlarning boshqalar oldidagi mas’uliyati qanday?", "Nima qilishlari kerak?", "Nima uchun o‘lishga tayyor bo‘lish kerak?" kabi savollarga nazariy va amaliy jihatdan javoblar ko‘p jihatdan axloqiy qadriyatlар bilan bog‘liq. Yuqorida ta’kidlab o‘tkanimizdek bu kabi savollarga javob topish jarayonida aynan maktabgacha ta’lim tashkilotiga qarashli maktabgacha yoshdagi bolalarga tushunarli bo‘la oladigan, axloqiy qadriyatlarimizga javob bera oladigan, ular real hayotda ko‘ra oladiga hayotiy hikoyalardan yoki tarbiyaviy ahamiyatga doir milliy ertaklarimizdan foydalanishimiz mumkin. Yuqoridagi kabi axloqiy tarbiyaga oid hikoya va ertaklardan foydalanganimizda, ularning xulosa qismiga alohida urg‘u berib, yaxshi axloqli insonlar har yeda va har kim uchun qadrli bo‘lishi haqida kengroq tushunchalar beriladi. Bu tushunchalar orqali esa maktabgacha yoshdagi bolalar kichik bo‘lishlariga qaramay yuksak axloqiy tarbiya sohiblari qanday fazilatlarga ega bo‘lishlarini bilib oladilar va ular kabi bo‘lishga intilib yashaydilar

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimi jarayonida axloqiy tarbiyani shakllantirish va rivojlantirish hozirgi kunning ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan eng dolzarb jarayon hisoblanadi. Buning asosiy sababi, ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi va tarbiyalanmagan bolaga bilim berishning noqulayligidir.

Maktab yoshidagi bolalarning axloqiy tarbiyasini o‘rganish uchun aytiladigan ertak va hikoyalar bolaning kechinmalaridan tashqarida bo‘lganligi sababli, bolalarning o‘z axloqiy xatti-harakatlari haqidagi hozirgi fikrlari ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi. Shuning uchun ham maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalashda ular uchun tushunarli so‘zlardan va kundalik hayotida uchraydigan voqealardan foydalanish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent: O‘zbekiston, 2017
2. A.M.Mamatova “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ahloqiy fazilatlarni zarurati”. Academic Research in Educational Sciences, 2023
3. H.T.To‘xtayev “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy jihatdan tarbiyalashning hamkorlik texnologiyalari” Pedagogy of Cooperation in improving the Quality of Education: International experience and Modern Approaches. International scientific-practical conference, Novembr 13, 2023
4. G.R.O’sarova “Maktabgacha ta’lim tizimida axloqiy tarbiyaning ahamiyati” “Ta’lim tizimida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2024-yil 18 – 19-aprel
5. G.R.O’sarova “The Essence and Content of the Organization of Independent Work in Elementary School Mathematics Lessons” Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT ISSN: 2792 – 1883 | Volume 2 No. 12